**Abstract:** This article analyzes the experience of advanced foreign countries in managing the innovative activity of enterprises with foreign investments, including: valuable lessons, competitive strategies, successful innovation policies, as well as the possibilities of their implementation in our country. Financial, technological, and organizational approaches aimed at supporting innovative activity have been studied, and by highlighting the relative significance of these experiences, the author provides opinions on the importance of public-private partnership in the implementation of innovative projects.

**Key words:** innovative activity, innovative potential, foreign investment, experience of foreign countries, competitive strategies, public-private partnership.

**Аннотация:** В статье комплексно анализируется опыт передовых зарубежных стран по управлению инновационной деятельностью предприятий с иностранными инвестициями, включая ценные уроки, конкурентные стратегии, успешную инновационную политику, а также возможности их внедрения в нашей стране. Автор рассматривает финансовые, технологические и организационные подходы к поддержке инновационной деятельности, подчеркивая относительную важность этого опыта, а также дает представление о важности сотрудничества государственного и частного секторов в реализации инновационных проектов.

**Ключевые слова:** Инновационная деятельность, инновационный потенциал, иностранные инвестиции, опыт зарубежных стран, конкурентные стратегии, государственно-частное сотрудничество.

## KIRISH

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda innovatsion siyosatning o'tkazilishi, eng avvalo, muayyan tarmoqlarda innovatsion salohiyatga ega bo'lgan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq. Bunday siyosat, birinchi navbatda, ishlab chiqarishning texnik jihozlanganligini yaxshilash, tarmoqlar, korxonalarning texnologik darajasini ko'tarish, umuman milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va boshqa shu kabilardan iborat bo'lgan qo'shimcha raqobat ustunliklari manbalarini aniqlashga qaratiladi. Ikkinchidan esa, raqobat ustunliklari ko'pincha bozorning yirik raqobatchilarda keltiradigan daromadining kamligi va o'zlashtirish vaqtida ko'lamlarining kichikligi tufayli qiziqish uyg'otmaydigan bo'g'inlarida yaratiladi. Uchinchidan, raqobat ustunliklariga uzluksiz ravishda mablag'lar sarflashni talab etadigan yangi ishlanmalar muntazam mukammallashib borgan taqdirdagina saqlab qolinadi.

Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda davlatning investitsion-innovatsion o'zgarishlar siyosati ilmiy-texnologik tsiklning barcha bosqichlarini rivojlantirish va rag'batlantirishni hisobga olgan holda shakllantirilgan ekan. AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Germaniya tajribasining ko'rsatishicha, mamlakatning barqaror rivojlanishiga erishining muhim omillari investitsiyalar va innovatsion ishlanmalar hisoblanar ekan, mana shuning uchun ham bu mamlakatlarda investitsion jarayonni faollashtirish uchun sharoitlar yaratib berish vazifalari, xususan innovatsion strategiyasini yaratish, milliy iqtisodiyotning preferentsial tarmoqlariga selektiv yordam ko'rsatish, xususiy va qarz investitsiyalarini jalb etish va joylashtirish



hamda to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalar o'rtasidagi munosabat masalalari birinchi darajali bo'lib hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Ushbu mavzuning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rnining nihoyat darajada kengligi bilan doimiy ravishda iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, korxonalarda innovatsion jarayonlarning nazariy asoslari, uning o'ziga xos xususiyatlari va sifatlariga dastlabki qarashlar Y. Shumpeter, N.D. Kondratyev, A.Klyayknext asarlarida, keyinchalik birqancha xorijlik olimlar, jumladan D. Toni, B. Tviss, F. Yansen, R. Metyuza, M. Dodson, Dj.Tidd, R. Trott, R.Taker, Grossi G. M. X. Kersner, K. Kleyton ilmiy ishlarida innovatsion faoliyatga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tasnifi, innovatsiya jarayonlarini korxonalari faoliyatiga tadbqiq etishning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi o'zni va innovatsion faoliyat mexanizmlarini shakllantirish kabi masalalar atroflicha tadqiq etilgan.

MDH olimlaridan P.F.Draker, V.P.Barancheyev, V.G.Medinskiy, A.G.Porshnev, G.D.Kovalev, R.A.Fatxutdinov, V.M.Gorfinkel, M.V.Shaburashvili larning olib borgan tadqiqotlarida sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni tashkil etish muammolari yoritib o'tilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari M.A.Mahkamova, R.I.Nurimbetov, SH.I.Otajonov, G.G'.Umarova, G.J.Allayeva, Z.T.Gaibnazarova, S.A.Nabiyeva, G.SH.Karabayeva va boshqalarning ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarishning tarkibi, korxonalarda innovatsion faoliyatni ragbatlantirishning ustuvor yunalishlari, inovatsion faollikning oshirishning manbalari va modellari chuqur o'rganilgan.

Shu bilan birga bevosita chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar va ishlanmalar, ilmiy va monografik tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan. Yuqorida keltirilgan sabablar tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur maqolada xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar innovatsion faolligini boshqarishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalari, muvaffaqiyatli innovatsion siyosatlarini, shuningdek ularni mamlakatimizda tadbqiq etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tahlil jarayonida miqdoriy tahlil, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy mamlakatlarda (AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur mamlakatlari) maqsadli investitsiya dasturlari, soliq va investitsiya imtiyozlari, jadallashtirilgan amortizatsiya siyosati kabi moliyaviy oqimlarni boshqarish vositalaridan foydalanish orqali amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonlar mamlakatning makroiqtisodiy rivojlanishiga samarali ko'rsatmoqda.

Xorij tajribasini o'rganish O'zbekistonga quyidagilarni beradi:

Innovatsion va texnologik rivojlanishning aniq strategiyalarini ishlab chiqish.

Mamlakatning iqtisodiy o'sishini tezlashtirish.

Mahalliy korxonalarni global raqobatga tayyorlash.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Ushbu jarayon O'zbekistonning innovatsion iqtisodiyotga o'tishini tezlashtiradi va texnologiyalarni rivojlantirish orqali milliy daromadni oshiradi.Quyidagi 2-jadval orqali Janubiy Koreya, AQSH, Singapur davlatlarining innovatsiyalar va texnologiyalar sohasidagi davlat investitsion siyosatini muvaffaqiyatli tomonlarini ko'rib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval. Innovatsiya va texnologiyalar sohasida rivojlangan xorij mamlakatlarining strategiyalari<sup>1</sup>

| Mamlakatlar    | Strategiyalari                                                                                                                                                                                                           | Natijalari                                                                                                                            |
|----------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Janubiy Koreya | R&D uchun davlat byudjetining 4-5% ajratish (KIST instituti); Yuqori texnologiyalar parklarini yaratish ("Techno Valley").Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash (imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari, texnik yordam). | Smartfonlar, yarimo'tkazgichlar va sun'iy intellekt sohasida yetakchi.                                                                |
| AQSH           | Innovatsion grantlar va fondlar (DARPA, NSF orqali moliyalashtirish); Startaplar uchun venchur kapitali va soliq yengilliklari; Ta'lim va ilm-fan infratuzilmasini rivojlantirish (MIT, Stanford).                       | Sun'iy intellekt, kosmik texnologiyalar va biotexnologiya sohasida global yetakchi; Silikon vodiysi dunyodagi innovatsiyalar markazi. |

1 Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



|                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                 |
|------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Singapur</b>  | Milliy innovatsiyalar tizimi (RIE dasturi orqali 2025 yilgacha 25 milliard dollar ajratilgan); Texnoparklar va innovatsiya markazlari (One-North texnoparki); Soliq va immigratsion yengilliklar orqali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.                                                                                                                                     | Logistika, biotexnologiya va moliyaviy texnologiyalar bo'yicha global markaz.                                                   |
| <b>Xitoy</b>     | Davlat subsidiyalari va «Made in China 2025» dasturi orqali strategik sarmoya; «Shenzhen» va «Zhongguancun» texnoparklari, 1600+ innovatsion markazlar; Startaplar va yirik kompaniyalarga davlat ko'magi, venchur kapitali; Davlat tomonidan moliyalangan 1600+ texnopark va innovatsion hududlar; Xalqaro ilmiy kadrlar almashinuvi va texnologiyalar eksportiga yo'naltirish. | Texnologik mahsulotlar eksporti bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda; Sun'iy intellekt, 5G, kosmik texnologiyalar, biotexnologiya. |
| <b>Germaniya</b> | YIMning 3% dan ortig'ini R&Dga yo'naltiradi; Fraunhofer instituti, «Max Planck» instituti kabi ilmiy markazlar; «Mittelstand» dasturi orqali grantlar, soliq imtiyozlari; Ilmiy tadqiqotlar va amaliyotni bog'lovchi o'quv dasturlari; Global ilmiy loyihalarda yetakchi rol, xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorlik.                                                           | Avtomobilsozlik va avtomatizatsiyada global liderlik; Avtomobilsozlik, sanoat avtomatizatsiyasi, yashil energiya.               |

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Janubiy Koreya davlat byudjetining 4-5% ini ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltiradi. Mamlakatda «KIST» (Korea Institute of Science and Technology) kabi muassasalar texnologiyalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. «Techno Valley» (Texno vodiysi) kabi klasterlar ilmiy innovatsiyalarni tezda amaliyotga joriy qilish imkonini beradi. Hukumat «Samsung», «LG» va «Hyundai» kabi kompaniyalarga imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va texnik ko'maklar ko'rsatadi.

AQSh hukumati esa «DARPA» va «NSF» kabi tashkilotlar orqali fundamental tadqiqotlarni moliyalashtiradi. Startap va texnologik kompaniyalarga venchur kapitali va soliq yengilliklari taqdim etiladi. Apple, Google, va Amazon singari kompaniyalar dastlab bunday dasturlar orqali rivojlangan. MIT va Stanford universitetlari kabi muassasalar davlat grantlari va hamkorlik dasturlari orqali texnologiyalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Singapur hukumati «Research, Innovation and Enterprise» (RIE) kabi dasturlar orqali ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlaydi. 2025-yilgacha RIE dasturi uchun 25 milliard dollar ajratilgan. One-North texnoparki xususiy va davlat sektorining hamkorligini mustahkamlaydi, bu yerda startaplar va yirik kompaniyalar birgalikda ishlaydi. Chet el mutaxassislari va investitsiyalarni jalb qilish maqsadida qulay biznes muhitini yaratgan.

Germaniya, Singapur, janubiy Koreya, AQSH va Xitoy davlatlari innovatsiyalarni rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot va rivojlantirish (R&D) sohasiga samarali katta hajmdagi investitsiyalar kiritib, texnologik o'sishga erishgan. Bu tajriba O'zbekiston uchun ham davlat byudjetidan ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashni oshirish zarurligini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, korxonalarda innovatsion jarayonlarni rivojlantirish bo'yicha strategiyani ishlab chiqish milliy iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari mazmunan boyib borib, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samarali xo'jalik yuritish faoliyati, tarmoq va sohalarining keng qamrovli va barqaror rivojlanishi uchun asos yaratiladi. Bu esa ishlab chiqarish va iste'mol sohalaridagi monopolistik holatlarga chek qo'yib, korxonalar resurslarining samarali taqsimlanishi va ularning harakatchanligini oshirishga olib keladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday davlatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi ko'pincha o'sha davlatda yaratilgan qulay ishbilarmonlik va biznes muhitiga bog'liq.

2022-yilning 23–28-yanvar kunlari Shveysariyaning Davos shahrida o'tkazilgan 39-an'anaviy Jahon iqtisodiy forumi doirasida dunyo mamlakatlarining «Global raqobatbardoshlik» to'g'risidagi hisobot e'lon qilindi. Ushbu hisobotga ko'ra, Shveysariya 2015-yildan beri ketma-ket besh yil davomida «Global raqobatbardoshlik» reytingida birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Reytingning birinchi uchligidagi davlatlarning pozitsiyalari o'tgan yilga nisbatan o'zgarishsiz qolgan bo'lib, birinchi o'rinda Shveysariya, ikkinchi o'rinda Singapur va uchinchi o'rinda Finlyandiya joylashgan (2-jadval).

2-jadval. Jahonning eng raqobatbardosh mamlakatlar reytingi<sup>2</sup>.

| № | Mamlakatlar | 2022-yil | 2019-yil | O'zgarish |
|---|-------------|----------|----------|-----------|
| 1 | Shveysariya | 1        | 1        | 0         |
| 2 | Singapur    | 2        | 2        | 0         |

2 <http://gtmarket.ru/>



|    |                 |    |    |    |
|----|-----------------|----|----|----|
| 3  | Finlandiya      | 3  | 3  | 0  |
| 4  | Germaniya       | 4  | 6  | +2 |
| 5  | AQSH            | 5  | 7  | +2 |
| 6  | Shvetsiya       | 6  | 4  | -2 |
| 7  | Gonkong         | 7  | 9  | +2 |
| 8  | Gollandiya      | 8  | 5  | -3 |
| 9  | Yaponiya        | 9  | 10 | +1 |
| 10 | Buyuk Britaniya | 10 | 8  | -2 |

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, jahonning eng raqobatbardosh mamlakatlari reytingining birinchi o'nligida Yevropa davlatlari sezilarli ustunlikka ega. Ushbu o'nlikka kirgan mamlakatlarning uch nafari Osiyo qit'asidan bo'lib, ular orasida Singapur (2-o'rin), Gonkong (7-o'rin) va Yaponiya (9-o'rin) joylashgan. Hisobotda AQSH so'nggi to'rt yil ichida o'z pozitsiyasini ikki pog'onaga yaxshilaganligi qayd etilgan. MDH davlatlari ichida Ozarbayjon (39-o'rin; +7) eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 7 pog'ona yuqorilagan. Shuningdek, Rossiya (64-o'rin; +3), Gruziya (72-o'rin; +5), Armaniston (79-o'rin; +3) va Qirg'iziston (121-o'rin; +6) davlatlarida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Biroq, Ukraina (84-o'rin; -11) reytingda oldingi yilga nisbatan 11 pog'ona pastlagan.

Innovatsiyalarga sarmoya kiritish bo'yicha muvaffaqiyatli mamlakatlar tahlilini ko'rib chiqsak, AQSH ilmiy-tadqiqot va yuqori texnologiyalarni rivojlantirishda dunyoda yetakchi hisoblanadi. DARPA (Mudofaa ilg'or tadqiqot loyihalari agentligi) va NASA (Kosmik tadqiqotlar agentligi) orqali davlat mablag'larini texnologiya va kosmosga yo'naltiradi. Bu davlat yetakchiligidagi innovatsiyalarni xususiy sektor bilan uyg'unlashtirib, yangi texnologiyalarni tijoratlashtirishga imkon yaratadi. Germaniya sanoat texnologiyalarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali "Sanoat 4.0" loyihagini amalga oshiradi. Bu dastur texnologik jihatdan rivojlangan sanoat tarmoqlarini yaratish, raqamli ishlab chiqarishni joriy etish va mehnat unumdorligini oshirishni maqsad qiladi. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda davlat va xususiy sektorning hamkorligi asosiy rol o'ynaydi.

Xitoyning "Made in China 2025" strategiyasi ishlab chiqarish sektorini modernizatsiya qilishga qaratilgan. U yuqori texnologiyalar, avtomobilsozlik, sun'iy intellekt va farmatsevtika kabi tarmoqlarga e'tibor beradi. Ushbu strategiya orqali Xitoy dunyoda texnologik jihatdan rivojlangan davlatlar qatoriga kirishni maqsad qilgan. Singapurning investitsiya modeli startap ekotizimi va IT klasterlarga asoslangan. Davlat texnologik klasterlarni rivojlantirish va startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari, grantlar va boshqa mexanizmlarni joriy qilgan. Bu model Singapurni global innovatsion markazga aylantiradi. (3-jadval).

### 3-jadval. Innovatsiyalarga sarmoya kiritish bo'yicha muvaffaqiyatli mamlakatlar tahlili<sup>3</sup>.

| Mamlakatlar      | Investitsiya modeli                                                               |
|------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| AQSH             | DARPA va NASA orqali yuqori texnologiyalarga investitsiyalar.                     |
| Yevropa ittifoqi | Horizon Europe dasturi orqali ilmiy-tadqiqotga yillik 95 milliard yevro ajratish. |
| Germaniya        | Sanoat 4.0 dasturi.                                                               |
| Xitoy            | 2025 Made in China strategiyasi.                                                  |
| Singapur         | Startap ekotizimi va IT klasterlar.                                               |

Innovatsion rivojlanish jarayonimiz ko'p jihatdan moliyalashtirish mexanizmlarining takomillashtirilishiga bog'liq. Respublikamizda innovatsiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar quyidagi manbalar orqali amalga oshiriladi:

Davlat budjeti – ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun grant va subsidiya shaklida ajratiladi.

Xususiy investitsiyalar – yirik kompaniyalar va tadbirkorlar tomonidan yo'naltirilgan kapital.

Xalqaro moliya institutlari – Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan kredit va grantlar ajratiladi (EBRD, 2022).

Hozirda startap ekotizim rivojlanish bosqichida bo'lib, IT Park va Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Lekin quyidagi muammolar ham saqlanib qolmoqda:

3 Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Kapital yetishmovchiligi – startaplar uchun xususiy investitsiyalar hajmi cheklangan.  
Korporativ innovatsiyalarning sustligi – yirik kompaniyalar innovatsiyalarga kam sarmoya kiritmoqda.  
Venchur kapital bozorining rivojlanmaganligi – sarmoyadorlar startaplarga investitsiya qilishdan ehtiyot bo'lishadi.

Bu muammolarni hal qilish orqali innovatsion investitsiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin bo'ladi. Janubiy Koreya innovatsion rivojlanish borasida muvaffaqiyatli tajribaga ega bo'lib, O'zbekiston bu modeldan foydalanishi mumkin. Koreyaning asosiy yutuqlari quyidagilardan iborat (Kim, 2018):

- Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish uchun davlat grantlari ;
- Texnoparklar va sanoat klasterlarini shakllantirish;
- Xususiy sektor bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish
- Koreya modelini quyidagi yo'nalishlarda joriy etishimiz mumkin(4-jadval).

4-jadval. Innovatsiyalarga sarmoya kiritish bo'yicha Koreya tajribasi va uni mamlakatimizga joriy etish tahlili<sup>4</sup>.

| Yo'nalish                 | Koreya modeli                                | O'zbekiston uchun tavsiyalar                       |
|---------------------------|----------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| Ilmiy tadqiqotlar         | R&D ga 4-5% YAIM ajratish                    | Innovatsiyalar uchun budget xarajatlarini oshirish |
| Texnoparklar              | Samsung va Hyundai texnoparklari             | IT va sanoat texnoparklarini kengaytirish          |
| Xususiy sektor hamkorligi | Tashabbuslarni qo'llab quvvatlash dasturlari | Korporativ innovatsiyalarni rag'batlantirish       |

Innovatsion ekotizimini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak, deb hisoblaymiz:

1. Ilmiy-tadqiqot loyihalarini rag'batlantirish – davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni oshirish.
  2. Xalqaro innovatsion jamg'armalar bilan ishlash – investitsiyalarni jalb qilish va texnologik hamkorlikni kengaytirish.
  3. Venchur kapital fondlarini tashkil etish – xususiy investorlar va davlat mablag'lari bilan qo'llab-quvvatlash.
- Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot natijalari va ilg'or tajribalarni umumlashtirish natijasida kelib chiqadigan takror ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiya faoliyatini maqbul integratsiyalash uchun makroiqtisodiy shart-sharoitlar bilan mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish modeliga o'tkazish bo'yicha quyidagi eng muhim vazifalar belgilab olinishi kerak:
- korxonalarning innovatsion faollik darajasini, iqtisodiyotning real sektori tomonidan innovatsiyalarga tijorat talabini, biznesning innovatsiyalarga moyilligini oshirish;
  - yalpi ichki mahsulotda ham davlat byudjeti, ham xususiy kapital hisobidan fan va innovatsiyalarga sarflanadigan xarajatlar ulushini oshirish;
  - kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning innovatsion usuli va faoliyatiga o'tishga milliy ustuvorlik maqomini berish;
  - investitsiyalarga innovatsion yo'nalish berish asosida investitsiya muhitini yaxshilash.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi 15-20 yil ichida dunyoning ko'plab mamlakatlari, ayniqsa, AQSH va Yaponiya, Xitoyda yirik sanoat majmualari va korporatsiyalari doirasidagi ommaviy ishlab chiqarishdan kichik sanoat tuzilmalariga o'tish boshlandi. Chunki, kichik korxonalarning ahamiyati hamma joyda va barcha sohalarda, jumladan, innovatsiyalarda ham ortdi. Va bu tasodif emas. G'arb biznes tajribasi KO'Bning innovatsion rivojlanishdagi afzalliklarini aniq tasdiqlaydi. Shunday qilib, mutaxassislar fikricha, Amerika va G'arbiy Yevropaning XX asrdagi 58 ta etakchi ixtirolaridan 46 tasi jismoniy shaxslar va kichik firmalarga tegishli. AQSh Milliy Ilmiy Jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, yirik korporatsiyalarga (10 000 dan ortiq xodim) qaraganda 500 tagacha xodimi bo'lgan firmalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlariga kiritgan bir dollar 24 baravar ko'proq yangiliklar ishlab chiqargan. Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarilayotgan barcha ilm-fanga asoslangan mahsulotlarning 50-55 ta turi makrotexnologiyalarga asoslangan. 46 ta makrotexnologiyaga ega 7 ta rivojlangan davlatning ulushi innovatsion bozorining 80% ni tashkil qiladi. AQSH har yili qariyb 700, Germaniya 530, Yaponiya 400 milliard dollarga teng ilm-fanga asoslangan mahsulotlar eksport qiladi. Hozirgi kunda jahon innovatsion bozorining hajmi qariyb 2 trillion 300 mlrd dollarni tashkil etadi. Uning tarkibida, AQShning ulushi 39%, Yaponiya – 30%, Germaniya – 16% ga teng.

4 Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Shu munosabat bilan, mamlakatimizda ham innovatsion rivojlanishning ahamiyatini sezilarli darajada oshirish, shuningdek, sifatli, xaridorgir, raqobatbardosh va arzon mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyatiga xususiy sektorni jalb etish, kichik innovatsion korxonalarni tashkil etish zarur.

Jahon banki guruhi O'zbekistonning barcha hududlaridagi kichik, o'rta va yirik korxonalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining tahlili natijalariga ko'ra, O'zbekistondagi firmalarning atigi 23,2 foizi so'nggi uch yil ichida mahsulot innovatsiyalarini, 14,4 foizi esa texnologik innovatsiyalarni qo'llaganliklarini ko'rsatdi. Biroq, bu firmalarning atigi 5 foizi bu maqsad uchun 100 dollardan ortiq mablag' sarflagan. So'nggi uch yil ichida so'rovda qatnashgan firmalarning 10 foizi tashqi ilg'or tajribalarni qo'llagan, 13 foizi korxona ichidagi imkoniyatlardan foydalangan, 7 foizi innovatsiyalar uchun shartnoma asosida outsorsing qilgan.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizda 98,8 mingta (Statistika agentligi ma'lumotlari) sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, innovatsiyalar joriy qilgan korxona va tashkilotlar ulushi atigi 0,23 % ni tashkil etayotganligi ular innovatsiya faoliyatining sustligi va befarqligidan dalolat beradi.

Innovatsiya faoliyatining sustligi, innovatsiyaga bo'lgan ehtiyojning past darajasi mamlakatda korxona va tashkilotlar o'rtasida kuchli raqobatning mavjud emasligi, hamda boshqaruvda bozor tamoillaridan foydalanmaslik yoxud ularda moliyaviy imkoniyatlarning yetarli emasligi natijasidir.<sup>5</sup>

Innovatsion salohiyat o'sishi uchun innovatsion faoliyat infratuzilmasi texnoparklar, innovatsion biznes-inkubatorlar, innovatsion texnologiyalar markazlari, texnologiyalar transferi markazlari, konsalting, axborot va innovatsion faol kichik korxonalarga turli xizmatlar ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalar ham rivojlangan bo'lishi taqazo etiladi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot natijalari va ilg'or tajribalarni umumlashtirish natijasida kelib chiqadigan takror ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiya faoliyatini maqbul integratsiyalash uchun makroiqtisodiy shart-sharoitlar bilan mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish modeliga o'tkazish bo'yicha quyidagi eng muhim vazifalar belgilab olinishi kerak:

korxonalarning innovatsion faollik darajasini, iqtisodiyotning real sektori tomonidan innovatsiyalarga tijorat talabini, biznesning innovatsiyalarga moyilligini oshirish;

yalpi ichki mahsulotda ham davlat byudjeti, ham xususiy kapital hisobidan fan va innovatsiyalarga sarflanadigan xarajatlar ulushini oshirish;

kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning innovatsion usuli va faoliyatiga o'tishga milliy ustuvorlik maqomini berish;

investitsiyalarga innovatsion yo'nalish berish asosida investitsiya muhitini yaxshilash.

Innovatsiyaning iqtisodiy nazariyasi asoschisi J.Shumpeterning fikricha, innovatsiyaga investitsiya kiritish taraqqiyotning haqiqiy dvigateli bo'lib hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. - <https://www.lex.uz>
2. Астанакулов О.Т. Анализ методов оценки рисков инвестиционной деятельности предприятия // Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2019. Том 9. № 5А. С. 176-186.
3. Инновационный менеджмент: учебник для вузов / С.Д. Ильенкова, Л.М. Гохберг, С.Ю. Ягудин [и др.]; под ред. С.Д. Ильенковой. - М.: ЮНИТИДана, 2004. – 343 с
4. Курбанов З.Н., Исаев Ф.И. "Иқтисодий барқарорликни ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили". "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2017 й ил – 8-1 бетлар
5. Bobonazarov J. U. Iqtisodiy samaradorlikni oshirishda innovatsion omillar ta'siri//So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 7-son respublika ilmiy-uslubiy jurnali 2023. №2.
6. Васильева И.А., Индюков А.И. Экономические факторы управления инновационным развитием региона // Креативная экономика. 2013. № 3(75). С. 115-1

5 Kurpayanidi, K.I. (2022). On the problem of developing an investment policy strategy in the context of institutional transformation. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali-sj international journal of theoretical and practical research, 2(3), 7–23. Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6503328>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>